

BOSHLANG`ICH SINFLARDA DIDAKTIK O`YINLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Gulzoda Normurodova Sanjar qizi

*Samarqand viloyati Kattaqo`rg`on tumani XTB ga qarashli 59-umumiy o`rta
ta`lim maktabi Boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda didaktik o`yinlardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari keng yoritilgan. Didaktik o`yinlarning ta`lim samaradorligini oshirishdagi o`rni, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish yollari, o`qituvchining pedagogik faoliyatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan yaxshilashni ko`rsatishi tahlil qilingan.*

**Kalit so`zlar:** *Boshlang`ich ta`lim, didaktik o`yin, metodika, pedagogik texnologiya, ta`lim samaradorligini.*

Аннотация: *В данной научной статье всесторонне раскрываются теоретические и методические основы использования дидактических игр в начальных классах с учетом и психологических особенностей учащихся. возрастных Проведен научный анализ педагогических возможностей дидактических игр, их влияния на уровень усвоения знаний, познавательную активность и повышение учебной мотивации обучающихся. Также обоснованы пути эффективной интеграции дидактических игр в учебный процесс и значение педагогической мастерства учителя в организации данного процесса.*

Ключевые слова: *Начальное образование, дидактическая игра, методика, педагогическая технология, эффективность обучения.*

Abstract: *This scientific article comprehensively examines the theoretical and methodological foundation of using didactic games in primary education, taking into account the age and psychological characteristics of pupils. The role of didactic games in increasing the effectiveness of the educational process, the ways of integrating them into classroom activities, as well as the significance of the teacher's pedagogical practice are analyzed from a scientific perspective.*

Keywords: *Primary education, didactic games, methodology, pedagogical technology, educational effectiveness.*

KIRISH

Boshlang`ich ta`lim uzluksiz ta`lim tizimining muhim bo`g`ini bo`lib, aynan shu bosqichda o`quvchilarning bilim olishiga bo`lgan munosabati, o`qishiga qiziqishi va ijtimoiy faolligi shakllanadi. Zamonaviy ta`lim jarayonida an`anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta`lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng samarali ta'lim vositalaridan biri sanaladi. Chunki kichik yoshdagi bolalardan o'yin yetakchi faoliyat turi bo'lib, o'yin orqali berilgan bilimlar ossonroq o'zlashtirildi va uzoq muddat xotirada saqlanadi.

Didaktik o'yin tushunchasi va uning pedagogik mohiyati

Didaktik o'yinlar – bu aniq ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'yin faoliyatidir. Didaktik o'yinlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan didaktik o'yinlar bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish funksiyalarini birlashtiradi. O'yin jarayonida o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, muloqot madaniyatini o'zlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va o'yin faoliyati

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (6 – 10 yosh) uchun harakatga, tasvirga, musobaqaga asoslangan faoliyatlar juda muhimdir. Ushbu yosh davrida bolalar tez zerikadi, diqqatini uzoq va bir joyga jamlay olmaydi. Shu sababli didaktik o'yinlar dars jarayonida diqqatini faollashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega.

O'yinlar o'quvchilarni emotsional holatini barqarorlashtiradi, darsni qiziqarli va mazmunli qiladi.

Didaktik o'yinlarning turlari

Boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar quydagi turlarga bo'linadi :

- Aqliy o'yinlar (topishmoqlar, mantiqiy masalalar);
- Rolli o'yinlar (kasblar, hayotiy vaziyatlar asosida);
- Harakatli o'yinlar (jismoniy faollika asoslangan);
- Interaktiv o'yinlar (AKT asosida);
- Didaktik stol o'yinlari (kartochkalar, rasmlar, bilan);

Har bir o'yin turi o'quvchilarning ma'lum kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlardan foydalanishning metodik tamoyillari

Didaktik o'yinlarning tashkil etishda quydagi metodik tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Maqsadga muvofiqlik – o'yin dars maqsadiga xizmat qilish;
2. Yoshga moslik - o'yin o'quvchining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;
3. Tizimlilik - o'yinlar dars tizimida izchil qo'llanishi;
4. Faollik - barcha o'quvchilarni qamrab olishi;
5. Natijadorlik - o'yin yakunida bilimlar mustahkamlash.

Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilimlarini ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. O'yin jarayonida o'quvchi erkin fikrlaydi, xatodan qo'rqmaydi, faol ishtrok etadi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, o'quvchilarda intizom, hamkorlik, ma'suliyat kabi sifatlarini shakillantradi.

O'qituvchining didaktik o'yinlarni tashkil etishdagi roli

Didaktik o'yinlarning muvaffaqiyatli ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi o'yin mazmunini puxta rejalashtirishi, qoidalarini aniq tushuntirishi va natijalarini tahlili qilishi lozim.

O'qituvchi o'yin jarayonida kuzatuvchi, yo'naltiruvchi va baholovchi rolini bajaradi.

Didaktik o'yinlarning psixologik asoslari

Psixologlar fikricha, o'yin faoliyatini bolaning ichki ehtiyojlarini qondiradi. O'yin jarayonida o'quvchilarning ijobiy emotsiyalarini kuchayadi, bu esa bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Didaktik o'yinlari orqali o'quvchilarning motivatsiyasi oshadi, darsga bo'lgan ijobiy munosabat shakillanadi.

Didaktik o'yinlar mohiyati olimlar talqinida

Pedagog olim Ya.A.Komenskiy ta'lim jarayonida o'yin faoliyatidan foydalanish zarurligini ta'kidlab, "bolalar o'yin orqali bilimni oson ongli ravishda o'zlashtradi", deb hisoblagan. Uning fikricha, o'yin bolaning tabiiy ehtiyojiga mos bo'lib, ta'limni majburiy jarayonida qiziqarli faoliyatiga aylantradi.

Psixolog olim L.S.Vygotskiy o'yin faoliyatini bolaning rivojlanishida muhim omil sifatida baholaydi. U o'yinni bolaning "yaqin rivojlanish zonasi" ni kengaytuvchi faoliyat turi deb hisoblaydi. Vygotskiyga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali o'quvchi o'zining real imkoniyatlaridan yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniga ega bo'ladi.

Didaktik o'yinlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri

Pedagog olim Bospalko ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlab didaktik o'yinlarni samarali pedagogik texnologiya sifatida baholaydi. Unga ko'ra, o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta'lim natijalarini barqarorligini taminlaydi.

Tadqiqotchi Amonashvili esa didaktik o'yinlarni insonparvarlik pedagogikasining muhim elementi sifatida ko'radi. Uning fikricha, o'yinlar orqali o'quvchi shaxsig hurmat, erkinlik va ijobiy munosabat shakillanadi.

Xulosa

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida qo'llanilganda o'quvchilar bilimlarini ongli va mustahkam o'zlashtradi, mantiqiy tafakkuri, nutq madaniyati hamda ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Shuningdek o'yin faoliyati orqali o'quvchilarda ijtimoiy faollik, hamkorlikda ishlash o'z fikrini erkin ifodalash va ma'suliyat hissi shakillanadi. Bu esa boshlang'ich ta'limni nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy vazifalarini ham samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Olimlarning fikriga ko'ra didaktik o'yinlarning ta'lim samaradorligini ularning dars maqsadiga muvofiq metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga va o'qituvchining

pedagogic mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchi didaktik o'yinlarni rejalashtirish, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish hamda o'yin natijalarini tahlil qilish orqali o'quvchilarni bilim darajasini aniqlash va rivojlantirishi mumkin.

Shu bois boshlang'ich ta'lim amaliyotida didaktik o'yinlarda tizimli, izchil va maqsadli foydalanish, ularni zamonaviy pedagogika texnologiyalar bilan integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning har tomonlama barkamol shakilanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim metodik vositalaridan biri hisoblanadi. Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarga to'liq mos kelib ularning bilish faoliyatini faollashtirish o'qishga bo'lgan qiziqshini oshirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Komeniskiy Ya.A Buyuk didaktika. – Toshkent: O'qituvchi 1975.
2. Viyotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishining asoslari. – Moskva Pedagogika, 1984
3. Amonashvili Sh.A. Insonparvar pedagogika asoslari. - Toshkent. O'qituvchi 1996.
4. Davletshin M.G'. Yosh pedagogik psixologiya. – Toshkent. O'qituvchi, 2002.
5. Sodiqova N.R. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent. Fan texnologiya, 2018
6. Qosimova K., Matjonov S. Boshlang'ich sinf o'qitish metodikasi. - Toshkent. Sharq, 2016.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. - Toshkent. 2021.
8. Karimova D.B. Didaktik o'yinlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish. Pedagogika jurnali. - Toshkent. 2019
9. Ismoilova M.I. Boshlang'ich sinfdan interfaol metodlar. – Toshkent.Fan. 2020